



SOME REFLECTIONS ON SOVIET HOLIDAYS

Kh. E. Yunusova

*Doctor of Historical Sciences, Professor
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: calendar, Paris Commune, internationalism, revolution, carnival elements, posters, composition, figure, model, unofficial, parades, entertainment events, proletarian culture, guidelines, scenario, “red wedding,” “red funeral ceremony,” symbol, propaganda.

Received: 22.12.24

Accepted: 24.12.24

Published: 26.12.24

Abstract: From its early years, the Soviet state established new Soviet holidays. The emergence and consolidation of these holidays did not happen instantly. The new holidays were intended to unite the key dates of the Soviet state and introduce new symbols. However, they gradually displaced the long-standing traditions and values of various nationalities within the USSR.

SOVET BAYRAMLARI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

X. E. Yunusova

*Tarix fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: taqvim, Parij kommunasi, internatsional, inqilob, karnaval elementlari, plakatlar, kompozitsiya, figura, maket, norasmiy, paradlar, ko‘ngilochar tadbirlar, proletar madaniyati, ko‘rsatma, ssenariy, “qizil to‘y”, “qizil dafn marosimi”, ramz, targ‘ibot.

Annotatsiya: Sovet davlati dastlabki yillardan yangi sovet bayramlarini shakllantirdi. Bu bayramlarning paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi bir zumda bo‘lmadi. Yangi bayramlar sovet davlatining asosiy sanalarini birlashtirishi, yangi ramzlarni joriy qilishi kerak edi. Ular SSSRdagi turli millat vakillarining uzoq yillik an‘analari va qadriyatlarini siqib chiqardi.

СОВЕТСКИЕ ПРАЗДНИКИ: НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ

Х. Э. Юнусова

*Доктор исторических наук, профессор
Национальный университет Узбекистана*

Ташкент, Ўзбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: календарь, Парижская коммуна, интернационал, революция, элементы карнавала, плакаты, композиция, фигура, макет, неофициальный, парады, развлекательные мероприятия, пролетарская культура, показ, сценарий, «красная свадьба», «красные похороны», символ, пропаганда.</p>	<p>Аннотация: Советское государство первых лет своего существования сформировало новые советские праздники. Однако их появление и закрепление не произошло мгновенно. Новые праздник должны были объединять ключевые даты советского государства и внедрять новые символы. Они вытесняли многолетние традиции и ценности представителей различных народов СССР.</p>
--	--

KIRISH. Sovet hukumati hukmronligining dastlabki yillaridan san'at, kino, teatr va madaniyatning boshqa sohalari kabilar bita partiyaning mafkuraviy siyosatiga bo'ysundirildi. Sinfylik asosida sovet bayramlari yaratildi, sotsialistik rivojlanish g'oyalari ilgari surilgan bu jamiyatda yagona madaniyatni yaratish kabi harakatlar madaniyat va san'at masalalariga biryolama yondashuvni belgilab berdi. Bu harakatlar milliy madaniyatlarning rivojlanishi, yangi, sovet hayoti sharoitlariga moslashuvi, bora-bora ularning bir-biriga yaqinlashib, aralashib ketishi kerakligi to'g'risidagi sovet konsepsiyasiga to'liq xizmat qildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI. Sovet davlatining yangi bayramlari davrning o'ziga xos xususiyatlari va qarama-qarshiliklarini o'ziga singdirgan alohida hodisa bo'lsada, bu bayramlarning paydo bo'lishi va mustahkamlanishi bir zumda bo'lmadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi SSSR tashkil topgan davrdan boshlandi. Hatto, SSSRdagi 1918–1920-yillardagi bayramlar 1960-yillardagi bayramlardan sezilarli darajada farq qilgan holda rivojlanib bordi[1]. Masalan, 1-May bayrami birinchi marta 1890-yilda “ishchilarning xalqaro birdamligi kuni” deb nomlangan bo'lsa, 1897-yildan boshlab, 1-May kuni ommaviy namoyishlar bilan birga siyosiy xarakterga ega bo'ldi[2]. Yangi sovet bayramlari qatorida 1-may 1918-yildan sovet bayramlarida asosiy o'rinni egalladi. Shu kuni butun mamlakat bo'ylab minglab mitinglar, namoyishlar va ko'cha yurishlari, inqilob yetakchilari, partiya a'zolari, ishchilar, askarlarning chiqishlari bo'lib o'tdi. “Bayram kuni Moskvada birinchi sovet ramzlaridan biri – “O'roq va bolg'a” surati paydo bo'ldi, u tez orada SSSR Davlat gerbining asosiga aylandi[3]”. Shu tariqa 1918-yilda yangi tantanali ramzlar – o'roq va bolg'a (davlat ramzi), qizil yulduz (Qizil Armiya ramzi), yangi madhiya (“Internatsional”) va davlat bayrog'i bo'lgan qizil bayroq – yaratildi. Yangi bayramlar sovet davlatining asosiy sanalarini birlashtirishi, yangi ramzlarni joriy qilishi, bayram ommaning muloqoti orqali shakllanishi va jamiyatning yangi o'ziga xosligiga hissa qo'shishi kerak edi[4].

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, eski bayram taqvimida Yangi yil saqlab qolindi. Yangi kiritilgan bayramlar bo'lsa, 1905-yil 9-yanvar, samoderjavie-ning ag'darilishi – 12-mart, Parij kommunasi kunlari – 18-mart, Internatsional – 1-may va Proletar Inqilobi kuni – 7-noyabrda nishonlanadigan bo'ldi[5]. Oktyabr inqilobining bir yilligi asosiy davlat bayramiga aylandi. Shu bilan asta-sekin sovet bayramlarining soni ko'payib bordi. Birgina Petrogradga 1918-yil oktyabrdan 1922-yil oktyabrgacha bo'lgan davrda 23 ta bayram shakllandi[8].

Bayramlar hayotga joriy bo'lishi uchun ularga aholi orasida qiziqish uyg'otish, ularning qadriyatlarini aholi tomonidan qabul qilinishi uchun bayramlarni jamoaviy qilish kerak edi. Ayni paytda sovet bayramlarini nishonlashda mafkuraviy kurash shakllariga alohida e'tibor qaratildi va ular siyosiy kampaniyalar bilan tenglashtirildi. Ularning o'tkazilishi yangi bayram udumlari bo'lishini talab qilardi. Bayramlarga puxta tayyorgarlik ko'rilar, asosiy yo'nalish RKP(b) MKning ko'rsatmalarida belgilab berilardi. Ularni o'tkazish rejalari VKP(b) MKning targ'ibot bo'limi tomonidan ishlab chiqilardi. Bayramlarni o'tkazish ssenariylari va metodikasi Xalq ta'limi komissarligi tomonidan ishlab chiqilardi. Qishloqda ishlar kuchayishi munosabati bilan 1924-yildan boshlab qishloqlarda bayramga tayyorgarlik ishlari bilan "Glavpolitprosvet" qoshidagi qishloqda ishlash bo'limi shug'ullandi[6]. Joylarga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma va sirkulyar xatlar yuborildi va bu bayramlarni tashkil qilishni mustaqil talqin qilishga doimiy to'siq bo'lib keldi.

Sovet madaniy siyosati va sovet bayramlari ta'sirida diniy marosimlariga ham qarshi kurashlar ko'payib, "qizil to'ylar" va "qizil dafn marosimlari" keng tarqaldi. Diniy ramzlarni o'zida mujassam etgan marosim va an'analar yo'q qilishni qisqa vaqt ichida amalga oshirish qiyin bo'lganligi sababli davlat har doim ham "eski marosimlar"ni yo'q qilishga jur'at etmadi, balki ularni "yangi", sotsialistik yoki "qizil" marosimlar bilan siqib chiqarishga harakat qildi. Ta'kidlash joizki, proletarit dohiylari, dasturlarida dinga qarshi kurash masalasi alohida mavzu bo'ldi. K.Marks ham o'zining "Gota programmasini tanqid" degan asarida "ishchilar partiyasi mehnatkashlarning ongini din ta'siridan qutqazish kerak degan"[7], degan bo'lsa, V.Lenin "Men diniy marosimlarda ishtirok etuvchilarni partiyadan o'chirish tarafdoriman"[8], deb fikr bildirdi.

To'ylarga yangicha tus berishga dastlabki urinishlar ham 1920-yillarda bo'ldi. O'sha davrdagi hujjatlar va davriy nashrlarda u "qizil to'y" deb nomlandi. Ushbu tadbirdan ikkita maqsad, ya'ni an'anaviy diniy marosimlarning tanazzulga uchraganligini ko'rsatish hamda yoshlarning hayot yo'lini tanlashda mustaqilligini ta'kidlash maqsadlar ko'zlandi. Shu tariqa ateistik yo'nalishga ega bo'lgan, sovet turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarni targ'ib qiluvchi "qizil dafn marosim"lari ham jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bordi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, KPSS MQ sovet bayramlarini shakllantirishda tashviqot targ'ibot ishlariga ham zo'r berdi. Shu maqsadda KPSS va partiya mahalliy qo'mitalari huzurida targ'ibot va tashviqot bo'limlari ishlab turdi. Dastlab uning umumiy nomi "Targ'ibot va tashviqot bo'limi" deb nomlandi va u 1920-yil aprelda tashkil etildi. Biroq, MQ siyosiy vaziyat, belgilangan vazifalarning bajarilishidan kelib chiqib, KPSS Markaziy Qo'mitasining tashviqot va tashviqot bo'limi turli yillarda turlida nomlandi. Jumladan, 1920–1928-yillarda Markaziy Qo'mitaning tashviqot va tashviqot bo'limi, 1928–1930-yillarda Markaziy Qo'mitaning tashviqot, targ'ibot va matbuot bo'limi, 1930–1934-yillarda Markaziy Qo'mitaning madaniyat va targ'ibot bo'limi, 1934–1935-yillarda Markaziy Qo'mitaning madaniyat va leninizm targ'iboti bo'limi, 1935–1938-yillarda Markaziy Qo'mitaning partiya targ'iboti va tashviqoti bo'limi, 1938–1939-yillarda Markaziy Qo'mitaning targ'ibot va tashviqot (og'zaki va bosma) bo'limi, 1939–1948-yillarda Markaziy Qo'mitaning targ'ibot va tashviqot boshqarmasi, 1948–1956-yillarda Markaziy Qo'mitaning targ'ibot va tashviqot bo'limi, 1956–1965-yillarda KPSS Markaziy Qo'mitaning Ittifoq respublikalari bo'yicha targ'ibot va tashviqot bo'limi, 1962–1965-yillarda Markaziy qo'mitaning mafkura bo'limi, 1965–1988-yillarda Markaziy Qo'mitaning targ'ibot va tashviqot bo'limi, 1988–1991-yillarda Markaziy qo'mitaning mafkura bo'limi deb nomlandi.

Barcha yangi sovet bayramlari rasmiy davlat bayramlari hamda (ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq) kasbiy bayramlar bo'lib, qishloq va shaharlarga xos kasb bayramlari 1960-yillarda shakllandi, o'zida milliy va sovet madaniyati elementlarini aks ettirdi. Bu davrda faqat oilaviy bayram bo'lmay qolgan to'y bayramlar orasida alohida o'rin egalladi. Davlat komsomol tashkilotlari orqali to'ylarga faol aralashib, yangi marosim elementlarini kirita boshladi[9]. KPSSning yangi tahrirdagi Programmasida bu – "kishilarning mehnat va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ma'rifatli qilish, yangi sovet marosimlari va odatlarini keng yoyish – ateistik tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismidir, deb ta'kidlandi[10]".

Kutubxonalar, o'quv zallari, bolalar bog'chalari, maktablar, yodgorliklar ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimlar ham bayram kunlari o'tkazildi. Keyinchalik bu tadbirlar yiliga ikki marta – 7-noyabr va 1-may kunlari – o'tkaziladigan namoyishlarga almashtirildi. Viloyat ijroiya qo'mitalari yoki qishloq kengashlari idoralari yaqinida mitinglar bo'lib o'tar, so'ngra plakatlar va dohiy portretlarini ko'tarib, ko'cha yurishlari o'tkazilardi. Bayram tadbirining ishtirokchilar ko'pincha bir qishloq kengashi tarkibiga kiruvchi barcha qishloqlarni aylanib chiqib, har birida miting o'tkazishardi. Bayram harakatining boshida partiya va komsomol tashkilotlarining a'zolari, maktab o'quvchilari, ular ketidan esa partiyasizlar

yurishardi. An'anaviy ko'cha yurishlarining yangi mazmuni va bezatilishi odamlarda qiziqish uyg'otardi. Namoyishchilarning oldingi safida bo'lish katta sharaf hisoblanardi.

XULOSA. Umuman, mamlakatda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror topib mustahkamlanib borishi bilan bir qatorda respublikaning butun ijtimoiy-siyosiy hayoti muttasil siyosiylashtirilib va baynalminallashtirib borildi va hukmron partiya tomonidan "sotsialistik qurilish" va mustabid tuzumni mustahkamlash vazifalariga bo'ysundirildi. Ijtimoiy-siyosiy hayot shu qadar shiddat bilan o'zgarib bordiki, mavjud har bir masalaga, muammoga siyosiy nuqtai nazardan qaraldi. Buning natijasida milliylik o'rniga amalda baynalmilallik ustuvor qilib qo'yildi, milliy qadriyatlar, an'ana, urf-odatlar oyoqosti qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 35.

1. Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 36.

2. Шаповалов С. Н. Советские революционные праздники в 1918–1920-е гг. // Cyberleninka: [сайт]. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/sovetskie-revolyutsionnyeprazdniki-v-1918-1920-e-gg-1>

3. Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 36.

4. Лебедева Л.В. Формирование советской праздничной культуры в 1920-е годы: новые ритуалы в процессе социального конструирования // Fundamental research. – № 2. – 2015. – С.1785.

5. Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 37.

6. Иникова С.А. Советские праздники в русской деревне // Российский этнограф. Этнологический альманах: Антропология. Культурология. Социология. – М.: Российская Академия наук, 1993. – С. 124.

7. Сидоров Д. Коммунистик партия динга қандай қарайди. – Т.: "Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока" ва "Ўзбекистони Сурх" бирлашган нашриёти, 1956. – Б.9.

8. Совет Иттифоқи Коммунистик партиясининг программаси. – Т.: "Ўзбекистон", 1986. – Б.63.

9. Иникова С.А. Советские праздники в русской деревне // Российский этнограф. Этнологический альманах: Антропология. Культурология. Социология. – М.: Российская Академия наук, 1993. – С. 128.